NAVOIY VILOYATI ZARAFSHON SHAHAR HOKIMINING QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko‘chasi 1

2021 - yil 27 - oktabr 148-5-78-Q/21 Zarafshon shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.20.2020-y., 03/20/642/1396-son) hamda O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi O‘RQ-641-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son) va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-y., 09/17/965/0393-son) hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda) 6-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2022-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga, shahar bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonunining 39-moddasiga asosan shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda 2022-yil uchun 10 foizgacha miqdordan kelib chiqib, jami 366 nafar

zaxiralangan ish o‘rni tashkil etilsin, shu jumladan:

- yolg‘iz ota-onalar hamda o‘n to‘rt yoshgacha bolalari va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va ko‘p bolali ota-onalar toifasi uchun 18 foiz 66 (nafar);

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida tamomlagan bitiruvchilar toifasi uchun 57,3 foiz 210 (nafar);

- safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar toifasi uchun 7,3 foiz 27 (nafar);

- nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 4,6 foiz 17 (nafar);

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun 1,6 foiz 6 (nafar);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun 8,1 foiz 30 (nafar);

- odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun 1,3 foiz 5 nafar;

Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining taklifi bo‘yicha shahar hokimi tomonidan fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan boshqa toifalari, shuningdek, atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 1,3 foiz 5 (nafar)

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun korxona, tashkilot va muassasalarda yaratiladigan ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarilishi ta’minlansin. Quyidagilarga:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida tamomlagan bitiruvchilar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan zidliklarni hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari.

4. Ish oʻrinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlari: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Nizomga (keyingi oʻrinlarda Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida koʻrsatilgan ish oʻrinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foiziga qoʻyilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Zarafshon shahar aholi bandligiga koʻmaklashish markazini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining qolgan qismini qoʻyish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya’ni 2022-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqida Zarafshon shahar aholi bandligiga koʻmaklashish markaziga birinchi chorak tamom boʻlganidan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha Zarafshon shahar aholi bandligiga koʻmaklashish markaziga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl boʻyicha muhtojlarni ishga joylashtirish toʻgʻrisida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari tayyorligi toʻgʻrisida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining amalda tayyor emasligi masalasiga Zarafshon shahar aholi bandligiga koʻmaklashish markazi tomonidan shahar hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

5. Shahar hokimining muhtojlar uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash boʻyicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik qoʻllanilishi inobatga olinsin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrugʻiga (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda roʻyxatdan oʻtkazilgan, roʻyxat raqami 3163) asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga subsidiya ajratilishi Zarafshon

shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (keyingi o‘rinlarda ABKM deb yuritiladi) direktori (E.Maxmudov)ga yuklatilsin.

7. Zarafshon shahar ABKM direktori (E.Maxmudov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror matni “Oltin vodiy” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Shoxmirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror rasman 2022-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

Shahar hokimi **A.Radjabov**

Зарафшон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 27 октябрдаги
148-5-78-Q/21-сон қарорига
1-илова

Belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiya

T A R K I B I

T/r	FISh	Lavozimi
1.	A.Shoxmirzayev	Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i, **komissiya raisi**
2.	E.Maxmudov	Zarafshon shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori, **komissiya raisi o‘rinbosari**
A ’ Z O L A R I		
3.	R.Ziyadullayev	Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi shahar bo‘limi boshlig‘i v.v.b
4.	U.Odilov	Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i v.v.b
5.	Z.Raximov	Zarafshon shahar xalq ta’limi bo‘limi mudiri
6.	R.Barakayev	Shahar hokimligi bosh yuriskonsulti
7.	Sh.Rajabov	Zarafshon shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazining ishsizlarni hisobga olish, ishga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shu’basi boshlig‘i, **komissiya kotibi**

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*

Зарафшон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 27 октябрдаги
148-5-78-Q/21-сон қарорига
2-илова

Zarafshon shahrida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni 2022-yilda ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan (kvotalangan) ish o'rinlari

T/R	Zarafshon shahri	Ularda ishlovchilar	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	Shundan							
				O'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko'p bolali oilalarning ota-onalari uchun	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar hamda Mehribonlik uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun	Mehnat bozorida shakllanayotgan vaziyat hisobga olingan holda shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazining taklifi bo'yicha shahar hokimlari tomonidan fuqarolarning ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan boshqa toifalari, shuningdek, atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun
1	NKMK DK Markaziy kon boshqarmasi	20 979	**189**	9	144	12	6	3	11	2	2
2	NKMK DK Zarafshon qurilish boshqarmasi	3 308	**34**	2	21	5	1		4		1
3	"Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasi Zarafshon hududiy boshqarmasi	2 741	**40**	6	7	8	3	3	8	3	2
4	"O'zbek geologiya qidiruv" AJ "Qizilqum" dala geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	305	**7**	2	2	1	1		1		
5	"O'zbek geologiya qidiruv" AJ "Daugiztau" dala geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	345	**7**	2	2	1	1		1		
6	Tibbiyot birlashmasiga qarashli ko'p tarmoqli poliklinika	**626**	**7**	3	2		1		1		
7	7-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	61	**1**	1							
8	"Barkamol avlod" bolalar ijodiyot markazi	53	**1**	1							
9	Bolalar va o'smirlar sport maktabi	65	**1**	1							
10	Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi	73	**2**	1	1						
11	Zarafshon sanoat texnikumi	83	**2**	1	1						
12	Zarafshon tibbiyot kollejі	91	**2**	1	1						
13	1-maktab	179	**2**	1	1						
14	2-maktab	255	**2**	1	1						
15	3-maktab	218	**2**	1	1						
16	4-maktab	120	**2**	1	1						

17	5-maktab	54	1	1							
18	6-maktab	78	2	1	1						
19	7-maktab	51	2	1	1						
20	8-maktab	153	2	1	1						
21	9-maktab	110	2	1	1						
22	10-maktab	208	2	1	1						
23	11-maktab	83	2	1	1						
24	12-maktab	285	3	1	1		1				
25	13-maktab	331	3	1	1		1				
26	1-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	102	2	1	1						
27	2-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	72	2	1	1						
28	3-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	30	1	1							
29	4-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	48	1	1							
30	5-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	51	2	1	1						
31	6-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	71	2	1	1						
32	7-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	69	2	1	1						
33	8-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	65	2	1	1						
34	9-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	77	2	1	1						
35	10-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	80	2	1	1						
36	12-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	73	2	1	1						
37	13-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	70	2	1	1						
38	14-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	70	2	1	1						
39	15-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	74	2	1	1						
40	16-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	103	3	1	1		1				
41	17-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	77	2	1	1						
42	20-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	89	2	1	1						
43	Zarafshon shahar obodonlashtirish boshqarmasi	382	7	3	1		1		2		
44	Viloyat tumanlararo ftiziatriya dispanseri	128	3	2					1		

45	Zarafshon shahar o'ta xavfli va karantin infeksiyalarni oldini olish markazi	55	1						1		
46	Zarafshon shahar sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi	84	2	1	1						
Jami:		32725	366	66	210	27	17	6	30	5	5